



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

O'QUVCHILARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Botirov Do'stqul

Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent

Karshiyev Abror Amrullayevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim jarayonida o'quvchilarning axborotni izlash, tahlil qilish, saralash va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, metodlari hamda ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborot kompetentligi, axborot savodxonligi, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ РАБОТЫ С ИНФОРМАЦИЕЙ У УЧАЩИХСЯ

Ботиров Дусткул

Джизакский государственный педагогический университет, доцент

Каршиев Абдор Амруллаевич

Джизакский государственный педагогический университет, доцент

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические и методологические основы развития компетентности работы с информацией у учащихся. В условиях информационного общества особое значение приобретает формирование у учащихся навыков поиска, анализа, отбора и эффективного использования информации в образовательном процессе. Рассматриваются педагогические условия, методы развития информационной компетентности на основе компетентностного подхода, а также возможности использования информационно-коммуникационных технологий в обучении.

Ключевые слова: информационная компетентность, информационная грамотность, компетентностный подход, образовательный процесс, педагогические технологии, информационно-коммуникационные технологии.

THE THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' INFORMATION PROCESSING COMPETENCE

Botirov Do'stqul

Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor

Karshiyev Abror Amrullayevich

Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor

Abstract

This article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing

students' information processing competence. In the context of an information society, it is essential to develop students' skills in searching, analyzing, selecting, and effectively using information within the educational process. The article discusses the pedagogical conditions, methods for developing information competence based on a competency-based approach, and the possibilities of using information and communication technologies in education.

Keywords: information competence, information literacy, competency-based approach, educational process, pedagogical technologies, information and communication technologies.

Bugungi kunda axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quvchilarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatda raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, aholi va yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Ushbu strategiya ta'lim tizimida ham axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va axborot madaniyatini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, o'quvchilarning axborot savodxonligini rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Bugungi kunda intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan, mustaqil ravishda zaruriy axborotlarni izlab topadigan va ulardan tahlil asosida zaruriylarini ajratib oladigan, barcha bilan muloqotga kirisha oladigan, ta'lim muassasasidan olgan bilimlarini shaxsiy va ta'limiy ehtiyojlarida qo'llay oladigan yoshlarni tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Buning uchun esa o'quvchilarni boshlang'ich sinflardan boshlab unga tayyorlab borish kerak. Ya'ni, umumta'lim fanlari bo'yicha chuqur bilim berish, xorijiy tillarni puxta o'rgatish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha kerakli malakalarni shakllantirib borish lozim. Ma'lumki, biz hozirgi kunda axborotlar olamida yashayapmiz. O'qishda ham, ishda ham, kundalik faoliyatda ham kompyuter texnikasi vositalariga duch kelamiz va bularsiz bugungi kunimizni tasavvur ham qila olmaymiz. Shunday ekan maktab o'quvchilarga informatika va axborot texnologiyalari fanidan chuqur bilim berish, kompyuter va uning boshqa texnik vositalaridan to'g'ri va oqilona foydalanishga o'rgatish kerak. O'quvchilar esa zaruriy axborotga ega bo'lish, ularni izlab topish, undan keraklisini ajratib olish va foydalanishni o'rganishi kerak. Shu bilan birgalikda o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalardan ular kundalik hayotlarida uchraydigan muammolarni hal etishda foydalana olishlari uchun kompetensiyalar shakllantirilishi zarur. Shunga ko'ra, bu vazifalarni ta'lim muassasida o'quvchilarni o'quv predmetlarini o'rganish jarayonida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega qilish bilan birgalikda ularni hayotiy ehtiyojlarida qo'llay oladigan holda tayyorlash kerak. Buning uchun esa o'qitish jarayoni kompetentlik yondashuvga asoslangan holda tashkil etish kerak. Kompetentli yondashuvga asoslangan ta'lim – o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, ta'limiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Axborot kompetentligini rivojlantirishning metodologik asoslari O'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish bir qator pedagogik yondashuvlarga asoslanadi. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir: Kompetensiyaviy yondashuv: Bu yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lashga qaratilgan. Natijada o'quvchilar o'z bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv Mazkur yondashuv o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash orqali ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar va tadqiqot metodlari keng qo'llaniladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi va individual xususiyatlarini hisobga olishga asoslanadi. Axborot kompetentligini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o'zni Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Quyidagi metodlar ayniqsa samarali hisoblanadi:

interfaol ta'lim metodlari;

loyiha asosida o'qitish;

muammoli ta'lim;

tadqiqot faoliyati.

Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha darslarda o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishni quyidagi 3ta yo'nalishda olib borish mumkin:

1. "Inson-inson" o'zaro ta'sirlashuv tizimida. Bunday o'zaro ta'sirlashuv natijasida ta'lim oluvchi eshitish, bir-birini eshitish, muhokama qilishga o'rganadi.

2. "Inson-kompyuter" o'zarota'sirlashuv tizimi. Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari va ularning vazifalarini hamda kompyuterni dasturli boshqarishni o'rganish asosida ta'lim oluvchi matnli, grafik, sonli, tovushli va video axborotlarni yaxshi qabul qilish, tushunish va ularning mazmunini o'zlashtirish qulay bo'lgan ko'rinishga o'zgartiradi.

3. "Inson-kompyuter-inson" o'zarota'sirlashuv tizimi. Yangi bilimlarni olish uchun lokal va global tarmoqlarning imkoniyatidan foydalanish.

Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha tashkil etiladigan darslarda o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish muammosini quyidagi o'qitish texnologiyalaridan foydalanib muvaffaqiyatli hal etish mumkin: muammoli o'qitish texnologiyasi; o'qitishning loyiha texnologiyasi; vaziyatli masalalarni echish usullari.

Loyihalar usuli—bu o'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchilar o'zlarining intellektual va jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirish orqali irodaviy va ijodiy qobiliyatlarini o'qituvchining bevosita nazorati ostida namoyish etadigan egiluvchan modeldir.

O'quvchilar loyihani nafaqat dars vaqtida, balki darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham bajarishadi. Loyihalarni bajarish jarayoni natijalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. O'quvchilarda mashg'ulotlar jarayonida quyidagilarni (axborotni tahlil qilish, tizimlashtirish, tasniflash, tushunarli va dizaynli tarzda taqdim etish, o'z fikrlarini erkin bayon eta olish, g'oyalarini shakllantirish, jamoada va guruhda ishlash, mustaqil ta'lim olish, mustaqil qaror qabul qilish) shakllantirish va rivojlantirish.

2. O'quvchilarning maktabda o'qitiladigan umuta'lim fanlari bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish hamda mustahkamlash.

3. Turli xil zamonaviy texnik vositalar (chop etish qurilmalari, skanerlash qurilmasi, mikrofon va boshqalar) bilan ishlash ko'zda tutilgan o'quvchilarning axborot madaniyati darajasini oshirish.

4. O'quv loyihalarini bajarishga mo'ljallangan pedagogik dasturiy vositalarni o'rganish shart-sharoitlar yaratish.

Bizning nuqtai nazarimizcha informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha

darslarda o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyalarni rivojlantirish masalasini to'raligicha echishda o'qitishning loyiha texnologiyasi katta imkoniyatga ega bo'lib, bu imkoniyatlar quyidagilardan iborat:

- 1) mehnat mahsulotlarni yaratish bilan yakunlanadigan, aniq muammoni echishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish;
- 2) turli manbaalardan o'zi uchun etarli bo'lmagan bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirib olish;
- 3) bilish va amaliy xarakterdagi masalalarni echish uchun o'zlashtirilgan bilimlardan foydalanish;
- 4) tadqiqotchilik ko'nikmalarni rivojlantirish;
- 5) kompyuterdan ijodkorlik uchun vosita sifatida foydalanish.

Loyihani bajarishda uning ishtirokchilari doimiy ravishda quyidagi yo'nalishlarda o'zarota'sirlashuvda bo'ladi:

- "o'qituvchi-o'quvchi" - muammoni echish rejasini tuzishda, muammoni echishning optimal yo'lini tanlashda, o'z mehnatining natijalarini himoyalashda ;

- "o'qituvchi-kompyuter-o'quvchi" - o'z bilish va amaliy faoliyati natijalarini rasmiylashtirishda ;

"kompyuter-o'qituvchi-o'quvchi" - o'zi uchun etarli bo'lmagan bilimlarni olish lokal va global tarmoqlarning imkoniyatlaridan foydalanib loyihaning boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro ta'sirlashuv.

Mavzuga oid matnlarni o'z ichiga olgan tarqatma materiallar o'quvchilarga taqsimlanadi. Berilgan topshiriqlarni bajarib o'quvchilar bilan sarlavha mazmunini va yangi vujudga kelishi mumkin bo'lgan savollarni tahlil qiladi. Klasterni to'ldiradi. Klaster markazida esa yangi dars mavzusi va uning atrofida yirik mazmunli birliklar joylashadi.

O'quvchilar juftlikda ishlashadi, o'qilgan matn asosida monologik tushuntirish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun kichik monologik mulohazalarni ishlab chiqadilar (o'qituvchi: kitoblarni yoping, juftlik bilan ishlash, o'qituvchi matni). Tayyorgarlik uchun bir daqiqa kerak. O'quvchilar o'zlariga berilgan fikrlarni sharhlar ekan, matnning mazmunini eslab, o'z fikrlarini ifodalashadi. Keyin o'quvchilar ushbu matn asosida sinkveyn tuzadilar. So'ngra, o'quvchilar o'z guruhiga matnni gapirib beradi va gapirib berishda quyidagi mezonni qo'llaydilar (1-jadval):

1-jadval.

Mezonlar	+	-
A) Matnning to'liqligi (etarli darajada)		
B) Muntazamlilik		
V) To'liqlik		
G) O'z fikri yoki nuqtai nazari mavjudligi		
D) Yangi materiallarni o'z ichiga olgan tuzilmaning turli tumanligi		
Ye) Guruhda ishlashdan qoniqish		

O'quvchilarning o'zaro ta'sirlashuvi jarayonida loyihaviy faoliyati quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi.

Dastlabki bosqich: loyihada qatnashish, uni amalga oshirishga o'quvchilarning yo'nalganligini, shuningdek maqsadlar, loyihaning etakchi g'oyalari, kichik guruhlar tarkibini aniqlash.

Ikkinchi bosqich: quyidagilarni o'z ichiga olgan faoliyatni rejalashtirish va tashkil etish:

- a) muammolarni hal etishga qaratilgan guruhdagi asosiy g'oyalarni ilgari surish va

jamoaviy muhokama qilish;

b) ishning rejasini tayyorlash, rejalashtirish, tayyorlangan rejani amalga oshirish, yakuniy mahsulot shaklini va taqdimot turini tanlash, kutiladigan natijalar va harakatlarni bosqichma bosqich aniqlash ;

s) guruh ishtiroklarining loyihani bajarish jarayonidagi majburiyatlari va rollarni taqsimlash;

d) kerakli manba va adabiyotni tanlash.

Uchinchi bosqichda o'quvchilarning mustaqil bajargan ishi natijalarini tahlil qilish, loyihaning yakuniy mahsulotini yaratish amalga oshirildi. To'rtinchisi bosqich barcha guruhlar tomonidan loyihaning taqdimotini ko'zda tutadi. Beshinchi bosqichi esa loyiha bo'yicha ishlarning natijalarini tahlil qilish va baholashni nazarda tutadi. Bu bosqichda o'qituvchilarning roli o'quvchilarga loyihani bajarish bo'yicha maslahat va yordam berishni tashkil qilish va amalga oshirishdan iborat.

Interaktiv o'qitish metodlaridan foydalanish asosida informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha mashg'ulotlarda o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida "Axborot -kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi mashg'ulot soha mutaxassislari ("Mutaxassis bilan uchrashuv" metodi) ishtirokida tashkil etildi. O'quvchilarga ushbu mavzu bo'yicha har bir guruhda oldindan 5-6 savolni tayyorlash va dars yakunida guruh a'zolaridan biri mutaxassis sifatida ishtirok etishlari taklif etildi.

Bunday vaziyatda esa mashg'ulot ssenariyasi quyidagi tarzda amalga oshirildi: darsni tashkil etuvchining kirish so'zi; mutaxassis ma'ruzasi; guruh vakillarining savollariga javob; o'quvchilarning ma'ruzada olingan ma'lumotlar yuzasidan muhokamada qatnashishi. Shu maqsadda mashg'ulot tashkilotchisi va taklif etilgan mutaxassislar muammo bo'yicha ekspert sifatida ishtirok etishga undadilar. Ular quyidagi savollar yordamida faollashtirildi: nima deb hisoblaysiz? nima deb o'ylaysiz?

Guruh ekspertlari esa mashg'ulot jarayonida berilgan ma'lumotlar, o'quvchilarning savollari va taklif etilgan mutaxassislar tomonidan berilgan javoblar asosida, shuningdek o'zlarida mavjud shaxsiy tajribalarga tayangan holda o'z fikr va mulohazalarini bildirdilar.

Tajriba jarayonida o'quvchilarning mustaqilligini oshirishga,rolli funktsiya asosida ularga o'z nuqtai nazarida qolishga imkon beruvchi "Zamonaviy axborot- kommunikasiya texnologiyalari" mavzusida guruhlararo muloqot qo'llanildi. Har bir kichik guruhda ishtirokchilar o'rtasida asosiy rolli - vazifalar taqsimlanadi:

- etakchi - uning vazifasi masalalarni muhokama qilishni tashkil qilish, unga guruhning barcha a'zolarini jalb qilish;

- analitik (tahlilchi) - fikrlarni, takliflarni g'oyalarni shubha ostiga qo'yib, muammoni muhokama qilish davomida muhokamalar ishtirokchilariga savol beradi;

- "Qayd qiluvchi" - muammoni hal qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha narsani va uni hal qilish yo'llarini qayd etadi. Dastlabki muhokamadan so'ng, u guruhning pozitsiyasini taqdim etadigan auditoriyaga murojaat qiladi;

- "Kuzatuvchi" - uning vazifasi guruhning har bir a'zosining aniq mezonlarga asoslangan muloqatdagi ishtirokini baholash.

Guruhlararo dialogni o'tkazish tartibi quyidagicha: o'qituvchining muammoni tushuntirish; ishtirokchilarni guruhlariga bo'lish, kichik guruhlarda rollarni taqsimlash; kichik guruhlarda muammoni muhokama qilish; mashg'ulotlarda barcha kichik guruhlariga muhokamalar natijalarini taqdim etish; umumiy xulosa, kasbiy nuqtai nazar; refleksiya, muhokamani umumlashtirish.

Shunday qilib, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishni ta'minlaydigan interaktiv o'qitish metodlarini tadqiq qilish va

asoslashni hisobga olgan holda, biz tomonimizdan aniqlagan xususiyatlarni quyidagicha ifodalaymiz:

- o'quv jarayonida o'quvchining faol (sub'ektiv) pozitsiyasi mavjudligi;
- o'quvchilar axborot bilan ishlash kompetensiyasini egallashi uchun universal bo'lib hisoblangan uslublar, algoritmlar faoliyat usullarini egallashni ko'zda tutuvchi, o'quv va kasbiy masalalarni echish uchun tayyorligini ta'minlovchi faoliyatli bilimlarni faollashtirish;
- interaktiv metodlar doira xarakteriga ega bo'lib, o'z ichiga quyidagilarni oladi:: muammo - vazifa – dialogik o'zaro ta'sirlashuv - o'quvchilarning mustaqil faoliyati – refleksiya.

Zamonaviy ta'lim metodlari amaliy vaziyatlarni modellashtirish, aniq amaliy muammo echimini topish va qabul qilingan qarorlarning natijalarini anglash, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini qayta ishlashga, qaytar aloqa ta'minotiga, fikr-mulohazalarini tahrirlay bilish va amaliy muammolarni hal qilishning muqobil usullarini topishlariga imkon beradi.

Har bir metod o'z qo'llanish sohasi va cheklanishlarga ega. Agar zamonaviy ta'lim metodlari to'g'ri tanlansa va kombinasiyalansa u holda axborot bilan ishlash kompetentligini yanada samarali rivojlantirish mumkin.

O'quvchilar o'zlarining veb-saytlarini yaratishda "Kommunikasiya texnologiyalari" mavzusida loyiha faoliyati shaklida ishlashdi. O'z ishlari davomida o'quvchilar: 1. Muammoni aniqladi. 2. Vazifalarni belgiladi. 3. Axborot qidirishni amalga oshirdi. 4. Matn muharririda saytning eskizini yaratdi; 5. Sayt yaratdi. 6. O'z-o'zini boshqarish va o'zaro nazoratni amalga oshirdi. 7. O'quvchilar oldida o'z ishlarini namoyish etdi va himoya qildi.

"Grafik va multimediya axborotlarini kodlash va qayta ishlash", "Algoritmlarning asoslari va ob'ektga asoslangan dasturlash", "Modellashtirish va rasmiylashtirish" mavzularida ham loyihalar yaratish uchun imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi.

Bunday loyihalar axborot kommunikasiya texnologiyasi yordamida hal etiladi. Loyihalarni hal etish jarayonida o'quvchilarda turli xil kompyuter dasturlar (Raint grafik muxarrir, Bloknot, WordRad matn muxarrirlari, MS RowerRoint muhitida taqdimot yaratish vositalari)dan foydalanish ko'nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, o'quvchilarga rebuslar, krossvordlar, hajmi unchalik katta bo'lmagan taqdimotlar yaratish bo'yicha ijodiy topshiriqlarni bajarishni taklif etish maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida O'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompetensiyaviy yondashuv va faoliyatga yo'naltirilgan metodlar orqali o'quvchilarning axborot bilan ishlash malakalari samarali rivojlantiriladi.

O'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentligini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: axborotni izlash va to'plash, tahlil qilish, saralash va baholash, qayta ishlash hamda uzatish ko'nikmalarini mustahkamlash. Shu bilan birga, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga imkon yaratadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan interfaol metodlar, loyiha va tadqiqot faoliyati, shuningdek, muammoli ta'lim usullari o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularni axborot izlash va tahlil qilishga jalb qilishda muhim vosita hisoblanadi. Bularning barchasi o'quvchilarning axborot-savodxonligini oshiradi, ularni hayotiy vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq etishga tayyorlaydi.

Shuningdek, davlat siyosati va normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan Prezident farmonlari va qarorlari ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va o'quvchilarning axborot kompetentligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa o'quvchilarda zamonaviy axborot madaniyatini shakllantirish va ularni raqamli jamiyat talablari bilan moslashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki ularni mustaqil, tanqidiy fikrlaydigan va hayotga tayyor shaxs sifatida shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu yo'nalish pedagogik tadqiqotlar uchun istiqbolli maydon bo'lib, zamonaviy ta'limning innovatsion va samarali metodlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida". – Toshkent, 2019.
3. Рузикулова Н.Ш. Бошланғич синф ўқувчиларида ахборот тушунчасини шакллантириш жараёни. // «Бошланғич таълим ва жисмоний маданият йўналишида сифат ва самарадорликни ошириш муаммо ва ечимлари» Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент. 2018. – Б. 223-224. (25)
4. Хуторской А.В. Технология проектирования ключевых и предметных компетенций // Интернет-журнал «Эйдос». – 2005. URL: <http://www.eidos.ru/journal/2005/1212.htm>
5. Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты // Интернет-журнал «Эйдос». 23 апреля 2002 г. URL: <http://www.eidos.ru/journal/2002/0423.htm>
6. Тюков А.А. Проблемные задания в профессиональной подготовке студентов. // Проблемное обучение в ВУЗе. –Москва: «Знание», 2001. (38)